

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY SOHANI RIVOJLANTIRISHDA SHAXS
IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR VA ULARNI
BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI**

Rustamov A‘zamjon Baxromjon o‘g‘li
Magistratura talabasi, O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat Xavfsizligi Universiteti
E-mail: mcdonald0498@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish davlatning muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Har bir shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash jamiyat barqarorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash esa jamiyat a‘zolarining ijtimoiy himoya va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdorligi bilan bog‘liq. Mazkur maqolada O‘zbekiston sharoitida shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularni baholash ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: shaxs iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimlari.

**THREATS TO PERSONAL ECONOMIC SECURITY IN THE
DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE IN UZBEKISTAN AND
INDICATORS OF THEIR ASSESSMENT**

Rustamov Azamjon Bahromjon oglu
Master's student, Public Safety University of the Republic of Uzbekistan
E-mail: mcdonald0498@gmail.com

ABSTRACT

Development of the social sphere in Uzbekistan is one of the important priority tasks of the state. Ensuring the economic security of each person is important in increasing the stability of the society. Ensuring economic security is related to the interest of society members in social protection and economic stability. This article analyzes threats to personal economic security and their assessment indicators in the conditions of Uzbekistan.

Key words: personal economic security, economic security, financial stability, employment, social insurance and pension systems.

**УГРОЗЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЛИЧНОСТИ В РАЗВИТИИ
СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ УЗБЕКИСТАНА И ПОКАЗАТЕЛИ ИХ ОЦЕНКИ**

Рустамов Аъзамжон Бахромжон ўғли
Магистрант, Республика Узбекистан
Университет общественной безопасности
E-mail: mcdonald0498@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Развитие социальной сферы в Узбекистане является одной из важных приоритетных задач государства. Обеспечение экономической безопасности каждого человека имеет важное значение в повышении стабильности общества. Обеспечение экономической безопасности связано с заинтересованностью членов общества в социальной защите и экономической стабильности. В данной статье анализируются угрозы личной экономической безопасности и показатели их оценки в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: личная экономическая безопасность, экономическая безопасность, финансовая устойчивость, занятость, системы социального страхования и пенсионного обеспечения.

Kirish

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish jarayonida shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning ahamiyati ortib bormoqda. Iqtisodiy xavfsizlik jamiyatdagi har bir fuqaroning barqaror hayot kechirishiga, ijtimoiy himoyasiz qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga, shuningdek, mehnat bozori, ta‘lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalarni rivojlantirishga asos bo‘ladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi davlat, korxonalar, jamiyat, shaxsga nisbatan qo‘llanilishi bilan bir qatorda, mazkur tushunchani yuqorida tilga olib o‘tilgan har bir subyekt nuqtayi-nazaridan ham qarab chiqish mumkin. Ayni paytda ulardan har birining holati yaxlit tarzda milliy xavfsizlikni shakllantiradi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, shaxs iqtisodiy xavfsizlikning birmuncha yirik subyektlari bo‘lgan korxonalar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jamiyat va davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shaxs bir paytning o‘zida xavfsizlik sohasining ham obyekt ham subyekt bo‘lgani holda, xavfsizlik sohasining barcha tizimlarida mavjud bo‘ladi va tizim tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiy xavfsizlikning barcha bosqichlarida muhim o‘rin tutadi, ammo shuni ta‘kidlash lozimki, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi o‘z navbatida jamiyat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, davlat va ekologik vaziyatga chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi globallashtirish va o‘zaro integratsiyalashuv sharoitida raqobat kurashi tobora kuchayib borayotgan bir davrda har qanday mamlakatning kelajakdagi rivoji, eng avvalo, insonlarda mujassamlashgan intellektual salohiyatni saqlash, ko‘paytirish, undan tijorat yo‘lida foydalanishga bog‘liq ekanligini hech kim rad yetmaydi. Oliy ma‘lumotga ega, ilmiy, malakali va katta amaliy tajriba sohibi bo‘lgan insonlarga jamiyatning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan modernizatsiyalash darajasini oshirish, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish sohasini shakllantirishi, jadallashtirishi mumkin.

Demak, taraqqiyotga intilgan har qanday jamiyat bu holatni tushunib etishi va albatta, insonni e‘zozlashi, uni turli xavf-xatar, xurujlardan asrashi, avaylashi, himoya qilishi lozim. Bu o‘ta murakkab vazifani davlat o‘z zimmasiga olishi, har bir insonning, mamlakat xalqining xavfsiz, osuda hayot kechirishini ta‘minlashi va bu ish uning muqaddas vazifasi ekanligini tushunib yetmog‘i lozim. Davlatni aql idrok bilan boshqarish, – mutafakkir Abu Nasr Forobiy aytganidek, – xalq boshiga tushgan xavf-

xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir. Bu hikmatli soʻzlar, bugungi kunda, davlatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim shioriga aylanishi lozim¹.

Tahlillarimiz shundan dalolat bermoqdaki, uzoq yillar davomida barcha mamlakatlarda turli ichki muammolar, kelishmovchiliklar, nomutanosibliklar, inson huquqlarining buzilishi, zoʻravonlik bilan bogʻliq jinoyatlar sonining ortishi, terrorizmning kuchayishi, narkotik hamda psixotrop moddalar isteʼmolining koʻpayishi, korrupsiya, byurokratiya, turli kasalliklarning tarqalishi, atrof muhitning ifloslanish holatlari kuchayib, ularning inson xavfsizligi va salomatligiga tahdidi ortib bormoqda. Iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashda shaxsning oʻrni qonunchilikda ham oʻz ifodasini topgan. Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi qonuni² da shaxs teng huquqli subyekt sifatida eʼtirof etilgani holda, quyidagi asosiy qoidalar belgilab qoʻyilgan:

- xavfsizlik- shaxs, jamiyat va davlatning har qanday ichki va tashqi xatarlardan himoyalanganlik holati;
- hayotiy muhim ehtiyojlar- shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi va kamol topishiga xizmat qiluvchi ehtiyojlarning umumiyligi;
- xavfsizlikka tahdidlar- davlat, jamiyat va shaxsning muhim hayotiy manfaatlariga tahdid soluvchi omillar va shart-sharoitlarning umumiyligi;
- tahdidlarning ichki va tashqi manbalaridan kelib chiquvchi xavfsizlikning real va potensial xavfi ichki va tashqi xavfsizlikni taʼminlash borasidagi faoliyatning mazmunini belgilab beradi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambagʻallikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2020 yil 26 martdagi PF-5975-sonli Farmoniga muvofiq samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambagʻallikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi etib qayta tashkil etildi. Mazkur vazirlikka kambagʻallikni qisqartirish borasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- iqtisodiy oʻsishning inklyuzivligini taʼminlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;
- kambagʻallikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambagʻallik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy taʼminotning minimal standartlari va meʼyoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;
- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish chora tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal isteʼmol savatini hisoblash

¹ A.A.Mamatov. Iqtisodiy xavfsizlik (oʻquv qoʻllanma). –T.:, 2020, 461 bet.

² Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi Qonun 2017-yil 3 yanvar OʻRQ-419 son.

metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuch migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida o‘zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish;

– O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish³.

Tadqiqot metodologiyasi

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga oid ilmiy atamalar, tushunchalar va fikrlarni tizimli tahlil qilish. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma‘lumotlarni yig‘ish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning shaxs iqtisodiy xavfsizligi bo‘yicha qarashlari, sohadagi mavjud muammolar va ularning echimlari bo‘yicha izlanishlar hamda sohaga doir qonuniy va meyoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganilib, hulosa va takliflar ishlab chiqildi. Shuning tadqiqotda ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli yondoshuv, guruhlash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat korsatkichlarni hisoblash, maqsadli rivojlantirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga turli tahdidlar mavjud bo‘lib, inson o‘zining xavfsizligini ta‘minlash uchun ularning oldini olish, bartaraf etish yoki ularning salbiy ta‘sirini pasaytirishga intiladi. Shaxs iqtisodiy xavfsizligi deganda alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi, ziyon-zahmat keltiruvchi, xavf-xatar tug‘diruvchi omillar, shart-sharoitlar va voqeliklarni ifodalaydi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli qarashlar va tavsiflar mavjud. A.P.Gaydarning fikricha shaxsga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar quyidagilardan iborat⁴ :

- aholining ish bilan past darajadagi bandligi va ishsizlik;
- inflyatsiya;
- kambag‘allik va qashshoqlik;
- shaxs va oilaning degradatsiyaga uchrashi;
- iqtisodiyotning kriminallasuvi;
- ta‘lim, sog‘liqni saqlash va fanning huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan holda tijoratlashuvi;
- ta‘lim, aholining bilim darajasining pasayishi;
- aholi turmush darajasining pasayishi va umr uzoqligining qisqarishi.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy elementlari (komponentlari) va ularga

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4776669>

⁴ Gaydar A.P. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Uchebnoye pospobiye. GPI im.A.P.Gaydara – 2011 g; Abulkasimov M.H. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo‘llari // J.: Iqtisod va moliya. 2017 y. 12-son. 19-25 betlar.

xavf soluvchi tahdidlarning birmuncha keng qamrovli klassifikatsiyasi O.A.Stepicheva, V.V.Chernova, M.A.Kotelnikovalar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular shaxsning iqtisodiy xavfsizligining oziq-ovqat va uy-joy bilan ta'minlanish, aholini takror ishlab chiqarish, huquqbuzarlik, sog'liqni saqlash, ekologiya, mehnat munosabatlari, madaniyat va ta'lim, axborot bilan ta'minlanish, daromadlar bo'yicha tabaqalanish va moliyaviy xavfsizlik sohalaridagi shakllarini hamda ularning har biriga xavf soluvchi tahdidlarni tavsiflaganlar.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar klassifikatsiyasi⁵

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining komponentlari	Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar
Oziq-ovqat bilan ta'minlanishdagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha haqiqiy va me'yoriy istemol darajalarining mos kelmaslik tahdidi; 2) Ocharchilik tahdidi (oziq-ovqatga iqtisodiy jihatdan erisha olmaslik).
Uy-joy bilan ta'minlanish va unda yaxshi sharoitlarda yashash bo'yicha shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Uy-joyning yetishmasligi tahdidi; 2) Yashash uchun noqulay uy-joylar ulushining ko'payishi tahdidi.
Aholini takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Aholi sonining kamayishi tahdidi; 2) Aholi umumiy sonida boqimandalar ulushining ko'payishi tahdidi; 3) Ajralishlar sonining ko'payishi tahdidi; 4) Abortlar sonining ko'payishi tahdidi; 5) Aholi alkogolizmi tahdidi.
Huquqbuzarlik sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Jinoyatchilikning ommaviy tarzda tarqalishi tahdidi.
Sog'liqni saqlash sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Vrachlar sonining kamayishi va malaka darajalarining pasayishi tahdidi; 2) Aholi kasallanishining o'sishi tahdidi.
Ekologiya sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Atmosferaga chiqindilar chiqarilishi oqibatida havoning zaharlanishi, ifloslantirilishi tahdidi.
Mehnat munosabatlari sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi.	1) Iqtisodiy faol aholi sonining kamayishi tahdidi; 2) Ishsizlikning ko'payishi tahdidi.
Daromadlar bo'yicha tabaqalanish va moliyaviy xavfsizlik sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) YAIM qisqarishi tahdidi; 2) Jamiyatda daromadlar bo'yicha tabaqalanishning kuchayishi tahdidi; 3) Aholining kambag'allashuvi tahdidi; 4) Aholining kreditga bog'liqligi tahdidi.
Axborot bilan ta'minlanish sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Aholining axborot bilan ta'minlanmaslik ("axborot ochligi") tahdidi.
Madaniyat va ta'lim sohasidagi shaxsning iqtisodiy xavfsizligi	1) Ta'lim olish imkoniyatlarining kamayishi tahdidi; 2) Aholining madaniy ne'matlarga erishish imkoniyatlarining kamayishi tahdidi.

⁵ Kotelnikova M.A. Transformatsiya modeli ekonomicheskoy bezopasnosti lichnosti v sovremennix usloviyax. Avtoreferat dissertatsii na sois. uch.stepeni k.e.n.. Tambov, 2015.-s.26; Stepicheva O.A., Chernova V.V., Kotelnikova M.A. Selevaya funktsiya i ugrozi ekonomicheskoy bezopasnosti lichnosti // Sotsialno-ekonomicheskiye yavleniya i protsessi. T. 10, № 2, 2015. -s. 88; Abulqosimov M.H. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari // J.: Iqtisod va moliya. 2017 y. 12-son, 21-bet.

O‘zbekistonda shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularni baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalar va tahlillar mamlakatning ijtimoiy sohasida yuz bergan jarayonlarni, asosiy tahdidlarni va ularga qarshi ko‘rilgan chora-tadbirlar samaradorligini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Quyidagi tahlil shaxs iqtisodiy xavfsizligiga turli tahdidlarning holati, ularni baholash ko‘rsatkichlari va ularni bartaraf etish uchun olib borilgan choralarning natijalariga bag‘ishlanadi va quyidagi jadvallarda ifodalanadi⁶.

1-jadval.

“Ishsizlik va kambag‘allik darajasining tahlili”

Natijalar:	Tahlil:	Baholash ko‘rsatkichlari:
<p>- O‘zbekistonda 2020-2023 yillar oralig‘ida ishsizlik darajasi kamayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda, bu mehnat bozorini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligidan dalolat beradi.</p> <p>- Aholi o‘rtasida kambag‘allik darajasi davlat tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy himoya va aholini daromad manbalari bilan ta‘minlash dasturlari yordamida sekinlik bilan pasaya boshladi.</p>	<p>- Ishsizlik darajasining pasayishiga qaramay, kambag‘allik darajasi hali ham yuqori. Bu mehnat bozoridagi barqarorlikning ta‘minlanmaganligi va kam daromadli ish o‘rinlarining ko‘pligidan dalolat beradi.</p> <p>- Mehnat bozorida malakali kadrlarga bo‘lgan talab o‘sgan, ammo ta‘lim va kasbiy tayyorgarlikning etarli darajada tashkil etilmaganligi muammo bo‘lib qolmoqda.</p>	<p>- “Ishsizlik darajasi”: 2023 yilda 8-9% atrofida.</p> <p>- “Kambag‘allik chegarasi ostida yashayotgan aholi”: 2021 yilda 12% dan 2023 yilda 10% ga tushgan.</p>

2-jadval.

“Inflyasiya va iste‘mol narxlari tahlili”

Natijalar:	Tahlil:	Baholash ko‘rsatkichlari:
<p>- 2022-2023 yillarda inflyasiya darajasi barqaror bo‘lgan, ammo oziq-ovqat mahsulotlari narxlari tez sur‘atlarda oshgan. Bu holat aholining real daromadlarini pasaytirib, ularning xarid quvvatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.</p> <p>- Davlat tomonidan bozordagi narxlarni nazorat qilishga qaratilgan choralar qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ayrim sohalarda mahsulot tanqisligi kuzatilgan.</p>	<p>- Inflyasiya narxlari asosan oziq-ovqat mahsulotlari va kommunal xizmatlarga ta‘sir qilgan. Bu holat qishloq xo‘jaligi va savdo tizimlaridagi muammolarni ko‘rsatadi.</p> <p>- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va oziq-ovqat mahsulotlarini ichki bozorda ta‘minlash choralari hali yetarli samara bermagan.</p>	<p>- “Inflyasiya darajasi”: 2023 yilda 9-10% atrofida.</p> <p>- “Oziq-ovqat mahsulotlari narxi”: 2023 yilda 15% ga oshgan.</p>

⁶ Quyidagi jadvallar muallifning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasining iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasi bo‘yicha statistik hisobotlari asosida shakllantirdi.

3-jadval.

“Qarz yuklamasi va moliyaviy barqarorlik tahlili”

Natijalar:	Tahlil:	Baholash ko‘rsatkichlari:
<p>- Qarz yuklamasi hamon yuqori bo‘lib qolmoqda. Aholining katta qismi kreditlardan foydalanishni davom ettirmoqda, ammo to‘lov qobiliyati pastligi ularning moliyaviy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.</p> <p>- Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha davlat tomonidan o‘tkazilgan o‘quv dasturlari amalga oshirilgan, lekin ularning ta’siri hali to‘liq sezilmagan.</p>	<p>- Aholi orasida moliyaviy savodxonlik past bo‘lib qolmoqda. Bu ularning shaxsiy mablag‘larini samarali boshqara olmasligini va moliyaviy majburiyatlar bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishiga olib keladi.</p> <p>- Qarz yuklamasini kamaytirish uchun bank tizimining shaffofligini oshirish va qonunchilik bazasini yaxshilash zarur.</p>	<p>- “Qarz yuklamasi”: 2023 yilda aholining qarzдорlik darajasi 40% dan yuqori bo‘lgan.</p> <p>- “Moliyaviy savodxonlik darajasi”: Aholining 50% dan ortig‘i moliyaviy savodxonlik bo‘yicha etarli bilimga ega emas.</p>

4-jadval.

“Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tahlili”

Natijalar:	Tahlil:	Baholash ko‘rsatkichlari:
<p>- Ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida malakali kadrlarni tayyorlashda bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy dasturlar joriy etildi.</p> <p>- Shunga qaramay, ish beruvchilar tomonidan talab qilinayotgan ko‘nikmalar va ta’lim olayotgan yoshlar o‘rtasida tafovut saqlanib qolmoqda.</p>	<p>- Mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talab oshgan bo‘lsa-da, ta’lim va kasbiy tayyorgarlik sifatining pastligi tufayli yoshlar ishga joylashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.</p> <p>- Ta’lim tizimini mehnat bozorining talablariga moslashtirish zarur.</p>	<p>- “Oliy va kasbiy ta’limga ega ishsizlar”: Oliy ta’limli yoshlar o‘rtasida ishsizlik 15% atrofida.</p> <p>- “Ta’lim tizimi samaradorligi”: Davlat tomonidan o‘tkazilgan ta’lim sifatini baholash tadqiqotlari natijalari bo‘yicha 2023 yilda ta’lim tizimiga qanoatlanish 60% ni tashkil etgan.</p>

“Tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatining tahlili”

Natijalar:	Tahlil:	Baholash ko‘rsatkichlari:
<p>- Tibbiy xizmatlar sifatida sezilarli yaxshilanishlar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan tibbiy muassasalarda zamonaviy uskunalar o‘rnatilib, kadrlar malakasini oshirish ishlari olib borilgan.</p> <p>- Biroq, tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyati hali ham barcha uchun teng emas, ayniqsa, qishloq hududlarida tibbiy yordamdan foydalanish darajasi past.</p>	<p>- Shaharlarda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaxshilangan bo‘lsa-da, qishloq hududlarida tibbiy xizmatlar sifatini oshirish kerak. Bu joylarda kadrlar etishmasligi va tibbiy markazlar mavjud emasligi kuzatilmoqda.</p> <p>- Tibbiy sug‘urtani keng joriy etish orqali xizmatlarga teng kirish imkoniyatini yaratish zarur.</p>	<p>- “Tibbiy sug‘urtalangan aholi ulushi”: 2023 yilda 20% dan kam.</p> <p>- “Tibbiy xizmatlardan foydalanish”: Qishloq hududlarida tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasi 50% dan past.</p>

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda shaxs iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tahdidlarni oldini olish va ularni baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha takliflar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali mamlakatning ijtimoiy sohasi rivojlanib, shaxs iqtisodiy xavfsizligi kuchayishi mumkin. Davlat tomonidan ijtimoiy himoya, moliyaviy savodxonlik va sog‘liqni saqlash sohalaridagi tadbirlarni kuchaytirish orqali har bir shaxsning iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanishiga erishiladi.

1. Ishsizlikni kamaytirish va ish o‘rinlarini yaratish:

- Takliflar:

-Yangidan ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini rivojlantirish. Ayniqsa, qishloq joylarida kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kredit va subsidiyalar berish.

- Kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozorining talabiga muvofiq ishchi kuchi tayyorlash.

- Yoshlar va ayollar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratish va ularni mehnat bozoriga moslashtirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish.

- Baholash ko‘rsatkichlari: Ishsizlik darajasining pasayishi, ishga joylashganlar sonining oshishi.

2. Inflyasiyani nazorat qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash:

- Takliflar:

- Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

- Davlat tomonidan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini nazorat qilish va narxlar keskin ko'tarilishini oldini olish maqsadida zaxiralar yaratish.

- Monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish orqali oziq-ovqat va xizmatlar narxlarini sun'iy oshirishga qarshi kurashish.

- Baholash ko'rsatkichlari: Inflyatsiya darajasi, oziq-ovqat mahsulotlarining narx dinamikasi, ichki bozorda mahsulotlar tannarxining barqarorligi.

3. Qarzdorlikni kamaytirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish:

- Takliflar:

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida aholi o'rtasida maxsus o'quv kurslari va treninglar o'tkazish. Bu kurslarda to'g'ri mablag'larni boshqarish, kreditlar va depozitlardan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlar berish.

- Qarzdorlik darajasini nazorat qilish uchun banklar va moliyaviy tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish, qarz olish shartlarini yaxshilash.

- Ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish va qarzlarni qaytarish mexanizmlarini mukammallashtirish orqali aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlash.

- Baholash ko'rsatkichlari: Qarz yuklamasi darajasi, shaxslar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni o'rganish tadqiqotlari natijalari, qarz majburiyatlarini ado etish ko'rsatkichlari.

4. Sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish va tibbiy xizmatlarni oshirish:

- Takliflar:

- Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish.

- Moliyaviy jihatdan zaif aholi qatlamlariga tibbiy xizmatlarga imtiyozlar berish, shu jumladan, davlat tomonidan subsidiyalashgan tibbiy sug'urtalarni joriy qilish.

- Mahalliy va mintaqaviy tibbiy muassasalarni zamonaviy uskunalardan ta'minlash va kadrlar malakasini oshirish uchun ixtisoslashgan kurslar o'tkazish.

- Baholash ko'rsatkichlari: Tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatining yaxshilanishi, tibbiy sug'urtalangan aholi ulushi, sog'liqni saqlashga sarflangan davlat xarajatlari.

5. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini takomillashtirish:

- Takliflar:

- Ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy talablarga javob beradigan dasturlar ishlab chiqish. Mehnat bozori talablariga mos kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash markazlarini ochish.

- Davlat va xususiy sektor hamkorligida ta'lim grantlari va stipendiyalar dasturlarini kengaytirish orqali yoshlarni yuqori malakali kasblarga o'qitish.

- Xalqaro standartlarga muvofiq, kasbiy tayyorgarlik dasturlarini joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash.

- Baholash ko'rsatkichlari: Mehnat bozori talablariga mos malakali ishchilar soni, qayta tayyorlangan va ishga joylashgan yoshlar soni.

6. Ijtimoiy himoya va pensiya tizimini yaxshilash

- Takliflar:

- Ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish, yoshlar va keksalarga moliyaviy yordam ko'rsatish bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish.

- Pensiya tizimini isloh qilish, sug'urta mablag'larining barqarorligini ta'minlash maqsadida islohotlar o'tkazish.

- Ijtimoiy sug'urta tizimi orqali aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish.

- Baholash ko'rsatkichlari: Ijtimoiy himoya va pensiyadan foydalanayotganlar soni, sug'urtalangan shaxslar ulushi, ijtimoiy sug'urta tizimining samaradorligi.

7. Moliyaviy texnologiyalar va innovasiyalarni joriy etish:

- Takliflar:

- Bank va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish, aholining moliyaviy sektorga kirish imkoniyatlarini oshirish orqali moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish.

- Moliyaviy texnologiyalar orqali shaxsiy mablag'larni boshqarish va investisiya qilish mexanizmlarini soddalashtirish.

- Axborot texnologiyalaridan foydalanib davlat xizmatlari ko'rsatishni samarali yo'lga qo'yish.

- Baholash ko'rsatkichlari: Moliyaviy inklyuziya darajasi, raqamlashtirilgan moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi shaxslar soni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining—"Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun 2017-yil 3 yanvar O'RQ-419 son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni. -<https://lex.uz/docs/4776669>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/ru/docs/4780475>
4. Gaydar A.P. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Uchebnoye pospobiye. GPI im.A.P.Gaydara – 2011 g; Abulkasimov M.H. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari // J.: Iqtisod va moliya. 2017 y. 12-son. 19-25 betlar.
5. A.A.Mamatov. Iqtisodiy xavfsizlik (o'quv qo'llanma). –T.:, 2020, 461 bet.
6. Kotelnikova M.A. Transformatsiya modeli ekonomicheskoy bezopasnosti lichnosti v sovremennix usloviyax. Avtoreferat dissertatsii na sois. uch.stepeni k.e.n.. Tambov, 2015.-s.26; Stepicheva O.A., Chernova V.V., Kotelnikova M.A. Selevaya funktsiya i ugrozi ekonomicheskoy bezopasnosti lichnosti // Sotsialno-ekonomicheskoye yavleniya i protsessi. T. 10, № 2, 2015. -s. 88; Abulqosimov M.H. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari // J.: Iqtisod va moliya. 2017 y. 12-son, 21-bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasi bo'yicha statistik hisobotlari asosida.